

**O'zbekiston sharoitida DMTM larida gimenolepidoz kassalligining
profilaktikasi va kasallikka qarshi chora tadbirlar olib borish**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi

Olimjonova Go'zal Olimjon qizi

Annotatsiya

Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bo'ylab davlat maktabgacha ta'lim tizimi muassasalarida bolalar yaxshi va sifatli ta'lim olishi, yaxshi va sifatli taomlanishiga doir keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda va buning samarali natijasi sifatida biz bolalar orasida gelmint kasalliklari bilan uchrash xolatlari kam qayd etilyotganini ko'rishimiz mumkin. Gelmintlar inson organizmida turli xil og'ir kasalliklarni keltirib chiqaradi va ayniqsa bolalarda xotira pasayishi kabi xolatlar ko'p uchraydi. Odamlarda gijjalarning 150 dan ortiq turi uchraydi va barcha turlari inson xazm qilish sistemasida qator kasalliklarni keltirib chiqarishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Parazitizm, gelmint, invaziya, autoreinvaziya

Geminolepidoz kasalligi xaqida umumiy ma'lumot

Pakana gijja (*Hymenolepis nana*). Odanda uchraydigan gimenolepidoz kasalligining qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Hamma joyda tarqalgan bo'lib, asosiy qismi ko'proq bolalarda uchraydi. Parazit tuzilishiga to'xtaladigan bo'lsak Parazitning tanasi boshqa tasmali chuvalchablardan farqli ravishda kichikroqdir, uzunligi 1 sm dan 4,5 sm gacha bo'ladi. Voyaga yetgan chuvalchang ingichka ichakda parazitlik qiladi. Yetilgan nozik bo'g'imlari ichakda yemirilgandan so'ng, tuxumlari ichakka o'tadi va axlat bilan tashqariga chiqadi. Parazitning tuxumlari yuvilmagan sabzavot, ifloslangan suv yoki iflos qo'llar orqali odam organizmiga tushadi. Oshqozonda tuxumning pardasi erib, ichidan onkosfera chiqadi. Onkosferalar ingichka ichakka tushganidan keyin ichak vorsinkalariga kirib oladi va shu yerda 2-3- kundan keyin finnalarga (sistetserkoidlarga) aylanadi. Bular o'sib vorsinkalar to'qimasini yemiradi va ichak yo'lga tushadi. Parazit ichakning shilliq pardasiga skoleksi bilan yopishadi, u yerda o'sadi, voyaga yetadi. Gimenolepidozda autoinvaziya kuzatilishi mumkin. Gimenolepidoz manbayi bo'lib gimenolepidoz bilan kasallangan odam hisoblanadi, chunki bemor parazit tuxumini tashqi muhitga tarqatadi.

Tashxisi: Parazitologik tashxis bemor axlatida gijja tuxumlari topilishiga asoslangan.

Shaxsiy profilaktika: Umumiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iborat.

Jamoat profilaktikasi: Gimnolepidoz bilan og'riqan odamlarni aniqlash va ularni davolash, suv va iste'mol qilinadigan ovqatlarning ifloslanishidan saqlash kerak. Gimnolepidozning oldini olish uchun aholi orasida keng tushuntirish ishlari olib borish, pokizalikka rioya qilish muhim. Ayniqsa, yasli-bog'chaga qatnaydigan bolalarning har biriga alohida tuvak bo'lishi va qo'llarini bot-bot sovunlab yuvib turishiga alohida e'tibor berish lozim. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, chala pishirilgan ovqatni iste'mol qilmaslik, ko'kat va mevalarni obdon yuvib ishlatish, xom go'sht to'g'rashga ishlatiladigan taxtakachni pishganiga ishlatmaslik Gelmintlar va gimnolepidozning keskin kamayishiga olib keladi. Ko'katlarni ishlatishdan 1 soat oldin 3%li osh tuzi eritmasiga solib qo'yib, keyin yaxshilab chayib tashlansa, gijja tuxumlari butkul yo'qoladi. Gijjalarning turiga qarab gelmintlarning davosi har xil. Bemorni davolashda yaxshi naf beradigan dorilar mavjud. Ularni faqat shifokor bilan maslahatlashib qo'llash lozim.

Gimnolepidoz kasalligi profilaktikasi ayniqda DMTM larida keng ko'lamda olib borilishi kerak bunga sabab tarbiyalanuvchi bolalar asosan kundalik kun tartibini muassasa xududida o'tkazishadi u yerda uch maxal ovqatlanib ta'lim olishadi bundan ko'rinib turibdiki kasallik profilaktikasi nazorati muassasa xududida kuchli nazoratga olinishi kerak. Xozirgi kunda gimnolepidoz kasalligi ancha bartaraf etilgan bo'lib axoli orasida kam foiz miqdorda uchrash xolatlari qayd etilmoqda. Shifokorlar tomonidan mahalla fuqarolar yig'inlariga tashrif buyurilib axoli oilalariga kasallikning yuqish yo'llari ayniqsa yosh bolali yosh oilalar farzandlariga etiborli bo'lishlari ularga sifatli va toza oziq ovqat maxsulotlari istemoli bo'yicha kerakli va sifatli ma'lumotlar berib kelinmoqda. Toshkent Shahar Shayxontoxur tumani 84-mtm da izlanishlar olib borilganda gimnolepidoz kasalligi bilan bog'liq quyidagi xolatlar qayd etildi bunga binoan

	Guruxlar soni	Tarbiyalanuvchilar yoshi	Tarbiyalanuvchilar soni	Kasallik qayd etilish xolati
	1-gurux	3 yoshdagi (kichik yoshdagi bolalar)	30	1 ta
	2-gurux	3 yoshdagi (kichik yoshdagi bolalar)	28	-

	3-gurux	4 yoshdagi (kichik katta gurux)	30	5 ta
	4-gurux	4 yoshdagi (kichik katta gurux)	30	3 ta
	5-gurux	5 yoshdagi (katta gurux)	30	3 ta
	6-gurux	5 yoshdagi (katta gurux)	30	2 ta
	7-gurux	5-6 yoshdagi (tayyorlov guruxi)	30	2 ta
	8-gurux	6-7,yoshdagi (maktabgacha tayyorlov)	30	-
	9-gurux	6-7,yoshdagi (maktabgacha tayyorlov)	30	-

Yuqoridagi xolatga asoslanib maktabgacha ta'lim muassasalarida kasallik ancha kam xolatda uchragani va yaxshi natija ekanligini ko'rishimiz mumkin. Kasallikni butunlay bartaraf etish bo'yicha bolalarni kuchli shaxsiy gigiena qoidalariga o'rgatish va ta'lim muassasiga kelganda tarbiyachi nazorati bilan xamkorlikda kunlik tartibni to'g'ri olib borishdan iborat. Kassalikni yuqishini oldi olinsan kasal bolalar va bemorlar soni kamayishini ko'rishimiz mumkin. Kasallik tarixi vas hu kasallik bo'yicha ma'lumotlar axoli kesimida o'rganilayotgan davrda shu narsa ma'lum bo'ldiki kasallik shaxar sharoitida kamroq qayd etilgan aksincha xolatlar qishloq chekka chekka xududlarda ko'proq qayd etilgan bundan ko'rinib turibdiki kasallikni kamaytirishni eng samarali usuli gigiena qoidalari xisoblanadi.

Xulosa

Gelmintozlar odamlarda xavfli kasalliklarni keltirib chiqaradigan kasalliklar xisoblanib axoli orasida keng tarqalgan. Odamda gijjalarning 150 dan ortiq turi uchraydi. Yashash sharoitlari: iqlim, tuproqning holati, dehqonchilik xususiyatlari va aholining gigiyenik ko'nikmalari darajasiga qarab turli mintaqalarda turli xil gijjalar uchraydi. Gelmintozlar kechishida o'tkir va surunkali davr farq qilinadi. Olimlar orasida odamda gelmintlarning bo'lishi ma'lum jihatdan uning qon

guruhiga ham bog'liq degan fikrlar mavjud. O'zbekistonda Gelmintlardan enterobioz, gimenolepidoz va askaridoz ko'proq uchraydi. Gelmintlar odamning nafas olishi, ovqat hazm qilishi, muskul sistemasi, jigar, taloq, qon, miya, ko'z va boshqa a'zolarida parazitlik qiladi. Gijjalarning xili, soni va qaysi a'zoda bo'lishiga qarab kasallik har xil kechadi. Gelmint kasalliklarida odamning vazni hamisha kamayadi, u lanj, injiq bo'lib qoladi, boshi aylanadi. Gijja ichakda bo'lsa, ich qotadi yoki ich ketadi, ko'ngil ayniydi, ba'zan bemor qayt qiladi, jigarda bo'lsa, ko'z oqi va badan sarg'ayadi, o'pkada bo'lsa, yo'tal tutadi. Gimenolepidozda ko'pincha mehnat qobiliyati pasayadi, bola yaxshi o'smaydi, xotirasi susayadi. Gijjalarning lichinkalari yoki tuxumlari topilishiga qarab tashxis qo'yiladi. Serologik reaksiyalar (immun fluoressentlash, bevosita gemag-glyutinatsiya reaksiyalari) dan foydalanish gelmintlarni erta aniqlash va vaqtida tashhis qo'yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) "Biologiyaning Konseptual asoslari" S. S.Fayzullayev I.T. Azimov U.E. Raxmatov-2020
- 2) P.X. Xoliqov A.Q. Qurbonov A.D. Daminov "Tibbiy biologiya va genetika"
- 3) Sylvia Marder, Michael Windelspecht. "Human Biology"-2015
- 4) K.N.Nishanbayev, P.R.Alimxodjayeva, D, J.Xamidov. "Медицинская биология и генетика -2008.